

“TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ROMANIDA URUSH FOJIASI TALQINI

Azim Oghli MOHAMMAD QASIM,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti O‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878233>

***Annotatsiya:** Maqolada iste’dodli yozuvchi O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida urush inson taqdiriga qanday iz qoldirgani badiiy talqin etilishi tahlil qilinadi. Asarda urushdan keyingi avlod ongi, ruhiy kechinmalari, oilaviy munosabatlar va jamiyatdagi ma’naviy tushkunlik holatlari badiiy obrazlar orqali ochib beriladi. Shuningdek, yozuvchining urush fojiasini o‘ziga xos uslubda ifodalash mahorati, ramziy vositalar va ichki monologlardan foydalanish xususiyatlari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** asar, yozuvchi, urush, ramz, obraz, badiiy talqin.*

XX asr o‘zbek nasrining ko‘zga ko‘ringan ijodkorlaridan bo‘lgan. O‘tkir Hoshimov asarlarini o‘rganish, yozuvchining o‘ziga xos uslubi va badiiy mahoratini tadqiq etish adabiyotchilar oldida turgan vazifalardan biridir. Zero, O‘tkir Hoshimov so‘zni san’at darajasiga olib chiqqan, uning har bir qa’tidan yangilik, badiiy yuksaklik axtargan va ana shu yuksaklikni ijod o‘zagi deb bilgan yozuvchidir. 80-yillarning oxirlariga kelib, jamiyat hayotida ko‘p o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Qayta qurish, oshkoralik tufayli mavjud muammolar xususida gapirila boshladi.

Uzoq yillar hukmronlik qilgan, chirib bitayotgan sotsialistik tuzumning asl qiyofasi ko‘rinib qoldi. Uzoq yillar gegimon bo‘lgan kommunistik partiya o‘z o‘rnini saqlab qolishga, jamiyat hayotini yana bir bor o‘zgartirishga qayta-qayta urina boshladi. Lekin bu harakatlar faqatgina ko‘ngilsizliklarga sabab bo‘ldi. bunga misol qilib, O‘zbekistonda markaz tomonidan jinoyatchilikka, poraxo‘rlikka barham berish niyatida olib borilgan harakat “o‘zbek ishi” deb nom olgan ommaviy qatag'on kompaniyasiga aylanib ketdi. 30-50-yillardagi qatag'on manzaralari takrorlandi. Jamiyat hayotidagi mana shunday manzaralar adabiyotda o‘zgacha qahramonlar hayoti tasvirlangan asarlarning paydo bo‘lishiga zamin hozirladi. Ko‘plar e’tiqod qo‘ygan, ishongan tuzumning barbod bo‘lishi, butun umrini, hayotini shu tuzumga xizmat qilishga sarflagan insonlarning ishongani sarob bo‘lib chiqishi O‘.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida mahorat bilan tasvirlandi. Unda mustabid tuzumning haqiqiy qiyofasi, odamlar ishongan aqidalarning bema'niligi ko‘rsatib berildi.

“Tushda kechgan umrlar” romani ham adibning avval yaratilgan “Ikki eshik orasi” romanidagi kabi voqelik bir necha hikoyachi – roviylartomnidan hikoya qilinadi. Bu usul yozuvchi o‘z g‘oyasi va fikrlarini ifoda etishning vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Aynan shu holat asar syujetining ham o‘ziga xosligini ta'minlagan. Badiiy asarda syujet markaziy ahamiyatga ega hisoblanadi. Syujet atamasiga ilmiy adabiyotlarda turli ta'riflar berilgan.

Masalan, "Adabiyotshunoslik lug'ati"da "Syujet (frans. — predmet, "asosga qo'yilgan narsa") badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog'liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi. Umuman, sujetlilik badiiy adabiyotning xos xususiyatlaridan biri bo'lib, barcha turdagi badiiy asarlarda ham syujet mavjuddir", deyiladi. Har bir asarning syujeti janriga ko'ra o'ziga xos tarzda bo'ladi. Xususan, epik janrdagi asarlar syujet va kompozitsiyasi yaxlit butunlikka ega ekani bilan lirik va dramatik asarlardan ajralib turadi. Muallif uchun syujet voqealari personajlar xarakterining ochilishi, shakllanishi muhim asos vazifasini o'taydi. Albatta, syujetning qanday bo'lishi muallif niyatiga bog'liqdir. Masalan, "Tushda kechgan umrlar" uchun tanlagan sujetda voqealarning bir nechta personajlar hayoti misolida tasvirlanishi — muallif ijodiy niyatni amalga oshirish uchun qulay usuldir. Negaki, romandagi syujet chizig'ining Rustam, Komissar, Qurbonoy xola liniyalari orasida kechishi yozuvchini yozishga undagan muammolarni ifodalashga imkonini yaratdi. Romandagi Qurbonoy xola, Komissar Soat G'aniyev kabi obrazlar qismati ham asardagi yetakchi qahramon Rustam taqdiri bilan bog'liq voqealarga bog'liq hola tasvirlanadi. Asardagi Afg'on urushi hamda "O'zbek ishi" fojialari ham shu muammolarni yoritish, ko'rsatish imkonini beradi. Albatta roman syujeti unda ishtirok etuvchi katta-kichik personajlarning harakatidan tashkil topadi.

"Syujetdagi voqealarning o'zaro munosabatiga ko'ra xronikal va konsentrik syujet turlari ajratiladi"¹. Xronikal syujetda voqealar ketma-ketligiga asoslansa, konsentrik syujetda voqealar mantig'i keyingi voqealarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. "Tushda kechgan umrlar" romanida biz har ikki syujet turini qorishiq holatda uchratamiz. Unda xronikal syujetga xos qahramon taqdirini davriy izchillikda, uning xarakterini rivojlanishda ko'rsatish, asosiy syujet bilan yondosh holda yordamchi syujet chiziqlarini ham yurgizish, juda katta hayot materialini qamrab olish imkoniyatlaridan unumli foydalanilgan. Muallif romanda retrospeksiya usulidan - zamondan ortga qaytish imkoniyatlaridan keng foydalangan.

Romanda tugun ham o'ziga xos tarzda qo'yilgan. Asarda mavjud syujet liniyalari o'z tuguniga ega bo'lishi mumkin ekan. Tugun asar voqealarining boshlanishiga turtki bo'lgan voqea-hodisalardan iborat bo'lib, Ekspozitsiyadan farqli o'laroq, tugun syujetning zaruriy elementi sanaladi, ya'ni u sujetda har vaqt hozirdir. Tugun, odatda, asarning boshlanishida, ekspozitsiyadan keyinoq beriladi. Shunisi ham borki, ba'zi katta hajmli asarlar sujetida bir emas, bir nechta tugunga duch kelishimiz ham mumkin. "Tushda kechgan umrlar"da ham shunday. Rustamning Afg'on urushiga olinishi Rustam liniyasining tuguni bo'lsa, Soat G'aniyevning ko'nglida "eshonvachcha" Fotimaga nisbatan nimalarnidir uyg'onishi va bolalar tomonidan izzat-nafsi kamsitilgandagi holati komissar liniyasining tuguni. Tugundan

¹ Сноскани кўйинг.

keyingi voqealar zanjiri voqea rivoji deb yuritiladi. Odatda syujet voqealari bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi. Asardagi voqealar rivojining eng yuqori nuqtasi, undagi konflikt benihoya kuchaygan o‘rni kulminatsiya deb yuritiladi.

Masalan, Rustamning o‘limi roman kulminatsiyasi sanaladi. Undan tashqari komissarning o‘g‘li Mauzer tomonidan "Sizning o‘g‘lingiz ekanimdan uyalaman" deb aytgan paytdagi holatni komissar liniyasining kulminatsiyasi deyish mumkin. Chunki, ayni shu nuqtada komissarning ham, sho‘ro tuzumining insoniylikka zid bo‘lgan qiyofasi ko‘rsatiladi. O‘g‘li tomonidan aytilgan ushbu gap Soat G‘aniyev ko‘ksini o‘qdek teshib o‘tadi. Kulminatsiya endi asar voqealarining yechimga tomon intilishini, bir tomonga hal bo‘lishini taqozo qiladi. Yechim syujet voqealari rivojining yakuni, ularning nihoyasida qahramonlar ruhiyatida, taqdirida yuzaga kelgan holatdir. Yechimda konfliktli holat, qahramonlar orasidagi ziddiyatlar o‘zining badiiy yechimini topadi. Yechim konfliktning hal bo‘lganini ko‘rsatishi bilan birga uning hal bo‘lmasligini ham ko‘rsatishi mumkin. Rustam liniyasida konfliktning yechimi berilmagan. Uning o‘z joniga qasd qilishi dramatismning fojiviy yakuni sifatida yuzaga kelgan. Komissar liniyasining yechimi esa qo‘rqinchli tushlar, yolg‘izlik, odamni yutaman deb turgan uyda tong otishini kutib, nomalum xadik bilan yashashdir.

Xulosa qilib aytganda, romanda realistik tasvir ustuvorligi shundaki, yozuvchi hodisani poetik idrok etish bilan cheklanib qolmaydi, balki unda ijodiy yondoshuv va estetik baholash mezonlarini birlashtiradi. Joriy munosabat tasvir shiddati uyg‘unligini taminlash barobarida xarakter to‘laqonligini ham mantiqan dalolatlaydi. Voqelik keskinligi yoxud ifoda to‘qnashuvi badiiy maqsadni aniqlashtiradigan omil, unda muhokama tabiatini anglash tadqiq sahniga chiqadi. Tuyg‘u va ongda kechadigan jarayon aslida, bir-birini inkor qiluvchi qutblar, teranfalsafagina bu ikki nuqtani jipslashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoldorov D. “ Ijod mohiyati – uslub xosiyati” – T: Turon zamin ziyo, 2017
2. Hoshimov O‘. Tanlangan asarlar IV. Roman, qissa, hikoyalar, hajviyalar, tarjimalar, o‘ylar. – T: Sharq, 2011
3. Hoshimov O‘. “Tushda kechgan umrlar” romani. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.- T: 2002
4. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. –T.: Sharq, 2004 . III
5. Hoshimov O‘. Saylanma: 2 jildlik. 1-j.-T.: Sharq, 1998.
6. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in alisher navoy's creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.
7. Kalandarova, Dilafroz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.
8. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. Nizami Tashkent State Pedagogical University lecturer of the Department of Uzbek language and literature. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410>

"TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR"

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

9. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma'rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
10. Rajabova, Hulkar. "Interpretation of time and space in shorts (Chronotope)(On the example of the stories of the writer Shukhrat Matkarim "Yilon", "Maqar", Kholiyor Safarov "Honor and Life", "Wingless Birds", "The Saddest Joy")." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 1332-1340.
11. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- б. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
12. O'RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. "Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf